


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4



TOSHKENT-2025

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Искандарова Нодира Бахрамбековна
ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В
НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ.....7
2. Сапаева Хилола Бахромбековна
ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В
РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....14
3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi
BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARNING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA
PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR.....18
4. Pulat Fozilov
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE’LLARINING IZOHLI
LUG‘ATLARDAGI TALQINI.....23
5. Masharipov Jakhongir Axmedovich
MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY
BETWEEN ENGLISH AND UZBEK.....28

IQTISODIYOT

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....32
2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIVASI
TASHKIOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....38
3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi
XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI.....45

PEDAGOGIKA

1. Usanova Zulfiya Bozorovna
HOZIRGI INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM
MISOLIDA).....54

TARIX

1. Tuyev Fazliddin Erkinovich
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI:
2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA.....59
2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi
FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI.....64

3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A'ZO BO'LISHI.....	68
4. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGY MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	73
5. Muborak Madrimovna Matyakubova XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI.....	78
6. Xayitov Shodmon Ahmadovich MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI (MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR).....	83
7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna QADIMGY XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO'YI O'ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.....	89
8. Durdona Jamolova BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI.....	93
9. Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O'RNI.....	98
10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI.....	103
11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK.....	107
12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.....	111
13. O'g'iloy Erbo'tayeva Suyunovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI.....	115
14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi XORAZM VOHASIDA URUG'CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI.....	120
15. Сулайманова Сохиба Баходировна СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАҢГАЛАРИ.....	125
16. Bahridil Ergasheva O'ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK YONDOSHUV.....	129

Pulat Fozilov-Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti mustaqil tadqiqotchisi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE'LLARINING IZOHLI LUG'ATLARDAGI TALQINI


<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15362390>

ANNOTATSIYA

Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi fiziologik holat fe'llarining izohli lug'atlardagi talqini masalalari yoritilgan. Har ikki til izohli lug'atlarida mazkur fe'llarni aks ettirishdagi leksikografik tamoyillar, so'zlarni izohlash prinsiplari, leksik-semantik tizimi, grammatik tavsiflari qiyosan o'rganilgan.

Kalit so'zlar. amaliy leksikografiya, metaleksikografiya, leksikografik tamoyil, diaxron va sinxron aspekt, leksik va fonetik ko'rsatkich, grammatik tavsif, leksik-semantik tizim, semantik ekvivalent.

Пулат Фозилов-Независимый исследователь Ташкентского государственного
университета узбекского языка и литературы

ПОЯСНЕНИЕ ГЛАГОЛОВ ФИЗИОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ В ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются вопросы пояснения глаголов физиологического состояния в толковых словарях на английском и узбекском языках. Исследованы лексикографические принципы отражения данных глаголов в толковых словарях на двух языках, принципы поиска слов, лексико-семантическая система и грамматическое описание.

Ключевые слова: практическая лексикография, металексикография, лексикографический принцип, диахронический и синхронический аспект, лексико-фонетический индекс, грамматическое описание, лексико-семантическая система, семантический эквивалент.

Pulat Fozilov-Independent researcher at Tashkent State University
of Uzbek Language and Literature

EXPLANATION OF VERBS OF PHYSIOLOGICAL STATE IN EXPLANATORY DICTIONARIES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

ABSTRACT

The article examines the issues of explaining verbs of physiological state in explanatory dictionaries in English and Uzbek. The lexicographical principles of reflecting these verbs in explanatory dictionaries in two languages, principles of searching for words, lexical-semantic system, grammatical description are studied.

Keywords. Practical lexicography, metalexicography, lexicographic principle, diachronic and synchronic aspect, lexical-phonetic index, grammatical description, lexical-semantic system, semantic equivalent.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Lugʻatchilik amaliy tilshunoslikning dolzarb sohalaridan biri hisoblanadi. Lugʻat til meʼyorlarini belgilash, tavsiflash borasida til taʼlimida ahamiyatli sanalib, uning ommalashuvida muhim rol oʻynaydi. Amaliy leksikografiya lugʻatni tartiblash, tuzish va tahrir qilish masalalari bilan shugʻullansa, nazariy leksikografiya muayyan tilda yaratilgan lugʻatlar strukturasi va semantikasini tahlil qiladi. Nazariy leksikografiya til ilmda metaleksikografiya deb ham yuritiladi. Metaleksikografiya amaliy lugʻatchilikning yutuqlari bilan bir qatorda kamchiliklarini ochiq koʻrsatishi, manbani mukammallashtirish yuzasidan aniq tavsiyalar berishi lozim. Har bir lugʻat turiga alohida murojaat qilish, uning informativ xususiyatlarini muayyan soʻz turkumi yoki leksik-semantik guruh doirasida oʻrganish, boshqa tillardagi turdosh lugʻatlar bilan qiyoslash natijasida lugʻatchilikda muayyan obyektiv koʻrsatmalar shakllanadi. Jumladan, ingliz va oʻzbek tillaridagi izohli lugʻatlarni fiziologik holat feʼllari doirasida qiyoslash tahlil koʻlamini mukammallashtirishi bilan birga ilmiy xulosalarning aniq boʻlishiga ham xizmat qiladi [1,36].

METODLAR VA OʻRGANILISH DARAJASI

Bugungi kunda xalqaro muloqot vositasi darajasiga koʻtarilgan ingliz tilining shakllanishi ilk oʻrta asrlarga borib taqaladi. Hind-yevropa tillar oilasiga mansub boʻlgan bu til asli german tili andozalari asosida taraqqiy etib, nisbatan qisqa vaqt ichida yirik lingvogeografik ustunlik kasb etgani maʼlum. Angliya, AQSh, Kanada va Avstraliya ingliz tilisi bir-biridan ayrim leksik va fonetik koʻrsatkichlari bilan ajralib turadi, biroq ularda grammatik tizim va adabiy til meʼyorlari yaxlitligi saqlanib qolgan. Ushbu tildagi ilk izohli leksikografik manba sifatida S.Jonsonning “Table Alphabetical” lugʻati eʼtirof etiladi. Bu lugʻat uzoq vaqt davomida yagona tizimlashtirilgan manba boʻlib qolgan boʻlsa-da, xalqaro miqyosda ommalashgan ilk manba Oxford English Dictionary hisoblanadi. Bu lugʻat “Merriam-Webster's Collegiate Dictionary”, “Collins English Dictionary”, “Cambridge Advanced Learner's Dictionary” va “Macmillan Dictionary” kabi manbalar uchun asos, andoza boʻlib xizmat qildi. Bu lugʻatlar bir-biridan tuzilishi va maʼlumot tarkibiga koʻra farqlanib, izohlar ham turli yondashuvlar asosida yaratilgan. Hozirda leksikografik manba lingvistik qomus xarakterini kasb etgan. Mualliflar izoh va misollar bilan cheklanmasdan sinonim, antonimlarni ilova qilishgan, soʻzning etimologiyasi va semantik taraqqiyotini, qoʻllanish chastotasi, nutqiy doirasini ham koʻrsatib oʻtgan. Izohli lugʻatlardagi maʼlumotlarning serqirraligi ularni til oʻrganish manbasiga aylantirgan. Zamonaviy onlayn lugʻat platformalari esa foydalanish uchun juda qulay, tezkor manba ekanligi bilan qimmatlidir. Maqola tarkibi va ichki qurilishi qanday boʻlishidan qatʼi nazar izohli lugʻatda soʻz talqiniga toʻrt shaklda yondashish mumkin:

1. *Tavsifiy izoh* – soʻz mohiyatini xarakter, koʻrinish, vazifa tavsifi vositasida yoritish. Bunday yondashuv asosan tub soʻzlar izohida kuzatiladi. Hech qanday qoʻshimchalarsiz sof oʻzakning oʻzidan iborat tub soʻzlarni *lemma* deb ham atash mumkin. Lemma bir necha yasama soʻzlar oʻzagi boʻla oladi. Masalan: **OILA** [a.عائلة] 1. Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tugʻishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui; xonadon.

2. *Sinonimik izoh* مجبوریت ‘z maʼnosini sinonimlar vositasida yoritib, uni misollar bilan mustahkamlaydi. Bunday yondashuv asosan ot turkumiga mansub leksemalari zohida qoʻllanadi. Qolaversa, sinonimlar boshqa soʻz turkumlariga mansub soʻzlar izohida ham uchraydi. Sinonimlarning asosiy leksema bilan uslubiy mutanosibli va semantic ekvivalentligi dolzarblik kasb etadi. Masalan: **MAJBURIYAT** [a.– majburlik; noilojlik; burch] 1) Gʻayriixtiyoriy vazifa, burch yoki biror majburiy ish, holat, ehtiyoj [236].

3. *Ishoraviy izoh* – soʻzlarning tub shakliga ishora qilish, uni turli birikmalar tarkibida qoʻllash. Bunday izoh asosan lemmadan yasalgan soʻzshakllari talqinida kuzatiladi. Masalan: **MADANIYATLI** – Madaniyatga erishgan, madaniyatni egallagan, maʼrifatli [2;228].

4. *Inkorli izoh* – izohda inkor shakllardan foydalanib soʻzni tavsiflash asosan feʼl yoki sifat turkumiga mos keladi. Masalan: **MADANIYATSIZ** – Madaniyati yoʻq, madaniyatdan orqada qolgan; maʼrifatsiz [2;228].

Yuqoridagi tip yondashuvlar izohli lugʻatchilik uchun umumiy, barcha tillardagi manbalarda, jumladan, ingliz tilida ham uchraydi. Maqolalar daliliy misollar, etimologik koʻrsatkichlar bilan boyitiladi. Shuningdek, bir lugʻat maqolada bir necha izoh tiplari uygʻunligini ham koʻrishimiz mumkin. Masalan, Cambridge Dictionary onlayn lugʻatida *to freeze* – *muzlamoq* fiziologik holat feʼli quyidagicha talqin qilinadi:

FREEZE verb (COLD) **B2** [I or T] **erbUK** /fri:z/ **US** /fri:z/ **froze** | **frozen**

If a person or animal that is moving freezes, it stops suddenly and becomes completely still, especially because of fear. **freeze to death** *Without a sleeping bag, you would freeze to death (= become so cold that you die) out there on the mountainside. She saw someone outside the window and froze. "Freeze (= don't move) or I'll shoot!" screamed the gunman* [3].

Ushbu lugʻatda *to freeze* feʼlining insonga va narsa-buyumlarga nisbatan qoʻllanadigan maʼnolari qamralgan. Biz aynan inson fiziologik holati maʼnosini ajratib oldik. Bu maʼno izohi tavsifiy shaklda – holat tasviri shaklida berilgan. Birinchi misol *freeze to death* iborasi vositasida soʻzning oʻz maʼnosi soquvdan *muzlamoq* holatini ochib bergan. Ikkinchi misol esa *qoʻrquvdan qotib qolmoq* holatini koʻrsatadi. Bu ikki farqli kontekstual maʼnolar izohi esa birlashtirib yuborilgan. “Oxford Learner’s dictionary” manbasida esa ayni shu soʻzning izohlari juda qisqa, asosiy eʼtibor misollar bilan dalillashga qaratilgan.

FREEZE **B1UK** /fri:z/ **US** /fri:z/ [intransitive, transitive] to be very cold; to be so cold that you die. *Every time she opens the window we all freeze. • Two men froze to death on the mountain. freeze somebody* *Two men were frozen to death on the mountain.* **B2** stop moving 1. [intransitive] to stop moving suddenly because of fear, etc. *I froze with terror as the door slowly opened. (figurative) The smile froze on her lips. The police officer shouted 'Freeze!' and the man dropped the gun. Suddenly, Ronny seemed to freeze. He was so surprised he froze to the spot. Maggie's face had frozen into a cold mask. She froze with horror when she saw the body* [4].

Yuqoridagi lugʻat maqolada misollar feʼlining valentlilik xususiyati bilan birga kontekstual maʼnolarini ham ochib bergan. Bir-biridan farqli “*qoʻrquvdan qotmoq*” va “*sovuqda muzlamoq*” semalari alohida izohlangan. Kontekstual polisemiya xususiyatiga ega boʻlmagan fiziologik holat feʼllari turli izohli lugʻatlarda quyidagicha talqin qilingan:

Cambridge Dictionary	Meriam Webster's dictionary	Collins Dictionary
SWEAT verb UK /swet/ US /swet/ to pass sweat through the skin because you are hot, ill, or frightened: <i>It was so hot when we arrived in Tripoli that we started to sweat as soon as we got off the plane. sweat with: the prisoners were sweating with fear. sweat like a pig</i> informal <i>I was so afraid, I was sweating like a pig (= sweating a lot)</i> [3].	SWEAT 'sweta: to excrete moisture in visible quantities through the openings of the sweat glands: PERSPIRE b: to labor or exert oneself so as to cause perspiration [5].	SWEAT verb [swet] B2 When you sweat, sweat comes through your skin. <i>Already they were sweating as the sun beat down upon them.</i> [VERB] Synonyms: perspire, swelter, sweat like a pig [informal], sweat buckets [informal] [3].
STARVE verb [I] US /starv/ to become weak or die because there is not enough	STARVE 'starva: to perish from lack of food b: to suffer extreme hunger 2 a archaic:	STARVE verb [sta:rv] 1. If people starve, they suffer greatly from lack of food,

food to eat: [1] <i>Many people could starve because of the drought</i> [3].	to die of cold b British: to suffer greatly from cold 3: to suffer or perish from deprivation [5].	which sometimes leads to their death. <i>A number of the prisoners we saw are starving. In the 1930s, millions starved to death or were deported</i> [7].
FAINT verb [I] UK /feint/ US /feint/ B2 to suddenly become unconscious for a short time, usually falling down: <i>He faints at the sight of blood. I nearly fainted in the heat. faint (dead) away</i> UK <i>She took one look at the hypodermic needle and fainted (dead) away (= became unconscious immediately)</i> [6].	FAINT verb feint intransitive verb 1: to lose consciousness because of a temporary decrease in the blood supply to the brain 2 archaic: to lose courage or spirit 3 archaic: to become weak [5].	FAINT verb [feint] B2 If you faint, you lose consciousness for a short time, especially because you are hungry, or because of pain, heat, or shock. <i>She suddenly fell forward on to the table and fainted. I thought he'd faint when I kissed him.</i> Synonyms: pass out, black out, lose consciousness, keel over [informal] [7].

To sweat soʻzi izohi “Meriam Webster” lugʻatida rasmiy bayon uslubida, ilmiy matn shaklida yozilgan. “Kembrij va Kollinz lugʻatlari”dagi tavsifiy izoh bevosita oʻquvchiga murojaat qiladi. “Kembrij lugʻati”da izoh terlash holatining sababiga ishora qilib, *isish* yoki *qoʻrquvda* yuzaga kelishini taʼkidlaydi. Misollar sirasida ibora ham berilgan. “Webster lugʻati”da tavsif batafsil, *teridan suyuqlik chiqishi* degan maʼno ilmiy uslubda izohlangan. Sabab sifatida *qattiq mehnat qilish* koʻrsatiladi. Bu maʼnoning nutqiy voqelanishi koʻrsatilmagan. “Kollinz lugʻati” esa *terlaganingizda ter teridan chiqadi* degan soda izoh bergan. Misoldan tashqari, maʼnodoshlar ham soʻz maʼnosini yaxshiroq ochib berishi uchun qoʻshilgan. “Kembrij lugʻati”da *to starve* fiziologik holati *ozuqa yoʻqligidan kuchsizlanmoq* yoki *oʻlmoq* deb izohlanadi. Bu safar mualliflar oʻquvchiga murojaat qilmasdan neytral uslubni saqlashgan. “Meriam Webster lugʻati” esa shu maʼnoga qoʻshimcha soʻzning tarixiy maʼnosi izohi *sovuqdan vafot etmoq* ham ilova qilingan. “Kollinz lugʻati”da *ovqatsizlikdan qiynalmoq* yoki *vafot etmoq* izohi berilgan. Izohda ham asosiy leksema *to starve* feʼliga qayta-qayta murojaat qilingani uning informativlik darajasini tushirib yuborgan. *To faint – hushsizlanmoq* fiziologik holati izohida uch lugʻat ham *conscious* va undan yasalgan leksemalarga murojaat qiladi. “Kembrij va Webster lugʻatlari” *hushsizlik* holatining oʻzini tasvirlasa, “Kollinz lugʻati” shu holat sabablarini ham keltiradi. Shuning uchun aynan shu izoh boshqalariga nisbatan batafsil va tugallangan xarakter kasb etgan. Demak, ingliz izohli lugʻatlari fiziologik holat feʼllari talqiniga tavsifiy yondashiladi. Biroq bu tavsifiy izohda baʼzan soʻzshakllari va sinonimlarning ham qoʻllanishiga guvoh boʻlamiz. Uslubiga koʻra rasmiy bayon batafsilligi sabab ustunlik qiladi, shu uslubda yozilgan “Meriam Webster lugʻati”dagi maqolalar misollar bilan boyitilishi lozim.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Maʼlumki, izohli lugʻatlarda kontekstual maʼnolari koʻp boʻlgan leksemalar talqinida qator muammolar yuzaga keladi. Bir soʻz turli kontekstlarda farqli maʼnolar kasb etishi leksikografik talqinda ham misollarga murojaat qilish zaruriyatini tugʻdiradi. Misollar izohdagi asosiy maʼno bilan birga uning kontekstual variantlarini ham dalillashga xizmat qiladi. Masalan, *muzlamok*, *yonmoq*, *jimirlamoq* feʼllarining bevosita lugʻaviy maʼnosidan tashqari kontekstual fiziologik holat maʼnosi ham mavjud. Lugʻatlar kontekstual maʼnoni alohida izohlash yoki faqat misollar vositasida yoritish yoʻlidan borishi mumkin.

Turkiy tillar, ularning turli lahjalari hozirgi gʻarb tillaridan ancha ilgari shakllana boshlagan. Shu sababdan yozma manbalar tarixi ham uzoq oʻtmishga borib taqaladi. Ilk tizimli, keng qamrovli leksikografik manba va milliy-madaniy qomus sifatida Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asari eʼtirof etiladi. Amaliy lugʻatchilik maktabi asosi deb Mahmud

Zamaxshariy asarlarini misol qilish mumkin. O'rta asrlarda mumtoz adabiyot ta'sirida ko'plab bir tilli izohli lug'atlar, arab va fors tillaridan tarjima lug'atlar yaratildi. Zamonaviy o'zbek leksikografiyasi esa zamonaviy o'zbek tilshunosligi kabi o'tgan asrda shakllandi. Tarjima lug'atlari, so'zlashgich va imlo lug'atlari qatori o'zbek tilining izohli lug'ati ham ayni shu davrda ilk marotaba nashr qilindi. Hozirga kelib bu yirik manba bir necha marta qayta ishlandi, takomillashtirilib nashr etildi. 2023-yil nashr qilingan 6 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" lotin grafikasida chop etildi. Bundan tashqari, www.izoh.uz saytida onlayn izohli lug'atdan foydalanish yoki J.Shukurov tomonidan yaratilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati mobil ilovasi"ga murojaat qilish mumkin. Bu lug'atlar strukturasi va qamrov ko'lamiga ko'ra dunyo lug'atlari bilan bellasha oladigan, barcha leksikografik tamoyillarga muvofiq manbalardir. Ularning yutuq va kamchiliklarini fiziologik holat fe'llari misolida tahlil qilib, takomillashtirish uchun tavsiyalar ishlab chiqish lug'atchiligimiz oldida turgan dolzarb amaliy vazifalardan biridir.

XULOSA

Tadqiqot davomida izohli lug'atlarda fiziologik holat bildiruvchi fe'llar talqini leksikografik jihatdan o'rganildi. Fe'llar izohlarida tavsifiy, sinonimik, ishoraviy va inkorli yondashuvlardan foydalanilganligi aniqlab berildi. Tahlil jarayonida ingliz tilidagi to freeze, to sweat, to starve, to faint kabi fe'llarning yetakchi leksikografik manbalardagi (Cambridge, Oxford, Merriam-Webster, Collins) talqin shakllari tahlil qilindi. Ularning kontekstual ma'nodagi ifodalanishi, izohlarda uslubiy farqlar va misollarning ko'rilganligi qayd etildi.

Natijalar asosida aniqlanishicha, rasmiy-bayon uslubida tuzilgan lug'at maqolalarida tavsif chuqur bo'lsa-da, kontekstual misollar yetarli darajada yoritilmagan. Aksincha, o'quvchiga yo'naltirilgan lug'atlarda semantik aniqlik yuqori bo'lib, izohlar misollar bilan boyitilgan.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Hartmann R. The history of lexicography Amsterdam: John Benjamins – 1986, 265 pp.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati (tuzuvchilar: A.Madvaliyev., D.Xudayberganova) – Toshkent: G'afur G'ulom, 2023.
3. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/freeze>
4. https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/freeze_1?q=freeze
5. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/sweat>
6. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/starve>
7. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/starve>

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000